



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 6 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 6

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№6 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-6>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'affor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxanova Dildora Sharipxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslovovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ҲУҚУҚРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ҲУҚУҚРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirazov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Рузиназаров Шухрат Нуралиевич ЮРИДИК ТАЪЛИМНИ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШУВИ ШАРОИТИДА «РАҚАМЛИ ҲУҚУҚ» (DIGITAL LAW) ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ.....	5
2. Aminov Dalerjon Alisher o'g'li O'ZBEKISTONDA HUQUQIY TA'LIM VA AMALIYOT HAMKORLIGINING ZAMONAVIY MODELLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	34
3. Зулунов Махсудбек Махаммаджонович ФОНДЛАР МУЛКИНИНГ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ РЕЖИМИ: НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ВА ҲУҚУҚИЙ ТАБИАТИ.....	41
4. Азизов Иқболжон Гулямович ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССИДА ИШ ЮЗАСИДАН ХУЛОСА БЕРИШ УЧУН ИШТИРОК ЭТУВЧИ ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ОРГАНИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ ҲОЛАТИ.....	50
5. Жураев Анваржон Ильхомжон угли ПРАВОВАЯ ПРИРОДА МАХАЛЛИ И ЕЁ РОЛЬ В РАЗВИТИИ СОВРЕМЕННЫХ ВИДОВ ТУРИСТИЧЕСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	58
6. Алтиев Раззоқ Саидович ЖИНОЯТЛАРНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ, АҲАМИЯТИ, ТУРЛАРИ ВА БОСҚИЧЛАРИ.....	67
7. Давлетмуратов Султанмурат Рустемович МЕҲНАТ МУНОСАБАТЛАРИ СОҲАСИДАГИ ЖИНОЯТЛАР: ТУШУНЧА, ТАСНИФ ВА ЖИНОИЙ ЖАВОБГАРЛИК НОРМАЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.....	79
8. Ismoilov Shoxabbos G'ayratjon o'g'li JINOYAT KODEKSI UMUMIY VA MAXSUS QISMLARI NORMALARI RAQOBATINING HUQUQIY TAHLILI.....	88
9. Кахаров Фируз Елмуратович ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ЖИНОЯТ ҚОНУНЧИЛИГИДА ҚЎШИМЧА ЖАЗОЛАР ТИЗИМИ: ҲУҚУҚИЙ ТАВСИФ ВА АМАЛИЙ ТАҲЛИЛ.....	98
10. Salaev Nodirbek Saparbaevich TRANSFORMATION OF UZBEKISTAN'S PENAL ENFORCEMENT LEGISLATION: A NEW PARADIGM OF HUMANISM, REINTEGRATION AND INNOVATIVE PENITENTIARY POLICY.....	106
11. Нажмитдинов Нодирхон Амриллохонович ТЕРРОРИЗМ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА РАҚАМЛИ ДАЛИЛЛАРНИ ОЛИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК.....	115
12. Adilxodjaev Sherzod Shuxratovich KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATINING DOLZARB MASALALARI: KORRUPSIYA TUSHUNCHASI VA ALOMATLARI.....	124



Ismoilov Shoxabbos G'ayratjon o'g'li,
Buxoro tuman prokurorining o'rinbosari
E-mail: shoxa.ismailov@mail.ru

JINOYAT KODEKSI UMUMIY VA MAXSUS QISMLARI NORMALARI RAQOBATINING HUQUQIY TAHLILI

For citation: Ismoilov Shoxabbos Gayratjon ugli. LEGAL ANALYSIS OF THE COMPETITION OF NORMS OF THE GENERAL AND SPECIAL PARTS OF THE CRIMINAL CODE. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 6.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21938735>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jinoyat huquqining dolzarb muammolaridan biri — O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining Umumiy va Maxsus qismlari normalari raqobati masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda umumiy va maxsus normalar raqobatining tushunchasi, uning jinoyatlar majmuidan farqi hamda huquqni qo'llash amaliyotidagi ahamiyati ochib berilgan. Jinoyat tarkibining asosiy elementlari — obyekt, obyektiv tomon, subyektiv tomon va subyekt belgilari bo'yicha normalar raqobatining yuzaga kelish holatlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi moddalariga tayanib, misollar orqali ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, tamom bo'lmagan jinoyat normalari, ishtirokchilik shakllari hamda Maxsus qismda mustaqil jinoyat sifatida belgilangan tarkiblar bilan Umumiy qism normalari o'rtasidagi raqobat masalasi ham qamrab olingan. Chet el qonunchilik tajribasi, xususan Ispaniya va Rossiya Federatsiyasi hamda Qozog'iston Respublikasi jinoyat kodekslari qiyosiy aspektda o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining amaldagi qarorlari tahlil qilinib, maxsus normaning umumiy normaga nisbatan ustunligi tamoyili asoslab berilgan. Maqola natijalaridan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish amaliyotida, sud-tergov organlarining faoliyatida, shuningdek jinoyat huquqi fanini o'qitish jarayonida foydalanish mumkin. **Kalit so'zlar:** normalar raqobati, umumiy norma, maxsus norma, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, jinoyat tarkibi, ishtirokchilik, tamom bo'lmagan jinoyat, Jinoyat kodeksi.

Исмаилов Шохаббас Гайратджон углы,
Заместитель прокурора Бухарской области
E-mail: shoxa.ismailov@mail.ru

ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ КОНКУРЕНЦИИ НОРМ ОБЩЕЙ И ОСОБЕННОЙ ЧАСТЕЙ УГОЛОВНОГО КОДЕКСА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается одна из актуальных проблем уголовного права — вопрос конкуренции норм Общей и Особенной частей Уголовного кодекса Республики Узбекистан, который анализируется как в научно-теоретическом, так и в практическом аспектах. В исследовании раскрыты понятие конкуренции общих и специальных норм, её отличие от совокупности преступлений, а также значение в правоприменительной практике. На основе

статей Уголовного кодекса Республики Узбекистан с приведением конкретных примеров показаны случаи возникновения конкуренции норм по основным элементам состава преступления — объекту, объективной стороне, субъективной стороне и субъекту. Помимо этого, рассмотрен вопрос конкуренции между нормами о неоконченном преступлении, формами соучастия и составами, закреплёнными в Особенной части в качестве самостоятельных преступлений, и нормами Общей части. В сравнительном аспекте изучен зарубежный законодательный опыт, в частности уголовные кодексы Испании, Российской Федерации и Республики Казахстан. Проанализированы действующие постановления Пленума Верховного суда Республики Узбекистан и обоснован принцип приоритета специальной нормы над общей. Результаты статьи могут быть использованы в практике квалификации преступлений, в деятельности судебно-следственных органов, а также в процессе преподавания уголовного права.

Ключевые слова: конкуренция норм, общая норма, специальная норма, квалификация преступлений, состав преступления, соучастие, неоконченное преступление, Уголовный кодекс.

Ismoilov Shoxabbos Gayratjon ugli,
Deputy Prosecutor of the Bukhara Region
E-mail: shoxa.ismailov@mail.ru

LEGAL ANALYSIS OF THE COMPETITION OF NORMS OF THE GENERAL AND SPECIAL PARTS OF THE CRIMINAL CODE

ANNOTATION

This article examines one of the pressing issues of criminal law — the competition of norms of the General and Special Parts of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, analyzed from both scientific-theoretical and practical perspectives. The study reveals the concept of competition between general and special norms, its distinction from the totality of crimes, and its significance in law enforcement practice. Based on the articles of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, with illustrative examples, the cases of norm competition arising from the main elements of a criminal offense — the object, objective side, subjective side, and subject — are demonstrated. In addition, the issue of competition between norms on incomplete crimes, forms of complicity, and offenses established as independent crimes in the Special Part, and the norms of the General Part, is also addressed. Foreign legislative experience has been studied in a comparative perspective, particularly the criminal codes of Spain, the Russian Federation, and the Republic of Kazakhstan. The current resolutions of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan have been analyzed, and the principle of the priority of the special norm over the general norm has been substantiated. The findings of the article may be applied in the practice of qualifying crimes, in the work of judicial and investigative bodies, as well as in the teaching of criminal law.

Keywords: competition of norms, general norm, special norm, qualification of crimes, elements of a crime, complicity, incomplete crime, Criminal Code.

Kirish

Umumiy va maxsus normalarning raqobati jinoyat huquqida juda keng tarqalgan hodisadir. Bu turdagi raqobat bir ijtimoiy xavfli qilmish ikki yoki undan ortiq jinoyat-huquqiy normalar bilan qamrab olinganda yuzaga keladi. Bunda normalardan biri sodir etilgan qilmishni aniq, o'ziga xos xususiyatlarini detallashtirgan holda (maxsus norma), ikkinchisi esa uni umumiy, kengroq ma'noda (umumiy norma) qamrab oladi va asosiy belgilariga ko'ra mos keladigan boshqa qilmishlarni ham mazkur norma nazarda tutgan modda bo'yicha kvalifikatsiya qilish imkoniyatini qoldiradi.

Umumiy norma ko'plab tur va ko'rinishlarni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan tushunchadir. Umumiy norma doirasidan ajratib olingan muayyan tur esa maxsus normaga aylanadi; u umumiy normaning barcha muhim belgilarini o'zida saqlagan holda, ushbu belgilardan bir yoki bir nechtasini aniqlashtiradi. Bunday nisbatda maxsus norma bilan qamrab olinadigan ijtimoiy xavfli qilmishlar

doirasi torayadi, biroq ayni paytda ushbu ijtimoiy xavfli qilmishlarni tavsiflovchi belgilar soni ko'payadi.

Material va metodlar

Maqolada ilmiy-tadqiqot usullarining majmuasi qo'llanildi. Avvalo, mavzu yuzasidan mavjud ilmiy adabiyotlar, qonunchilik hujjatlari va sud amaliyoti materiallari o'rganilib, qiyosiy-huquqiy tahlil usuli qo'llandi. Umumiy va maxsus normalarning raqobati xususida yurist olimlarning fikrlari induksiya va deduksiya usullarida tahlil qilinib, umumiy xulosalar chiqarildi. Xususan, AQSh, Ispaniya, Rossiya, Qozog'iston hamda MDH davlatlarining jinoyat qonunchiliklari misolida qiyosiy tahlil o'tkazildi – bu mamlakatlarda jinoyat qonunchiligidagi umumiy va maxsus qismi normalari nisbati o'rganildi.

Tadqiqot natijalari

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish deganda, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish belgilari bilan ushbu Kodeks Maxsus qism moddalarida nazarda tutilgan aniq jinoyat tarkibi belgilari o'rtasidagi moslikni aniqlash tushuniladi.

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda ba'zan sodir etilgan bitta huquqbuzarlik bir vaqtning o'zida jinoyat kodeksi Umumiy qismi yoki Maxsus qismidagi bir nechta normalarga "to'g'ri kelishi" mumkin. Bunday holatda qaysi normani qo'llash masalasi yuzaga keladi. Jinoyat-huquqiy me'yorlar "raqobati" (konkurensiyasi) deganda aynan bir huquqbuzarlik uchun bir-biriga zid bo'lmagan, o'zaro bog'liq bo'lgan bir nechta jinoyat normasi qo'llanishi mumkin bo'lgan vaziyat tushuniladi.

Nazariyada bu holat jinoyatlar majmui (bir necha jinoyat sodir etish) institutidan farqlanadi: agar bitta harakat (qilmish) bir nechta norma talablari doirasiga tushsa – bu norma raqobati, aksincha, shaxs alohida-alohida bir necha jinoyat sodir etgan bo'lsa – bu jinoyatlar majmui deyiladi.

Norma raqobatida sodir etilgan qilmish yagona, ammo unga nisbatan bir-birini qamrab oluvchi bir necha normalar mavjud bo'ladi va qonunga muvofiq ulardan faqat bittasi qo'llanilishi kerak. Umumiy norma – kengroq doiradagi xatti-harakatlarni qamrab oluvchi jinoyat huquqi me'yor bo'lsa, maxsus norma – aynan o'sha xatti-harakatning alohida, xususiy holatini nazarda tutuvchi me'yor hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Jinoyat huquqi nazariyasida maxsus norma umumiy normani chetlab, keng qo'llaniladi. Ko'plab mamlakatlarda ushbu qoidani qonunchilik darajasida mustahkamlovchi normalar mavjud.

Masalan, Ispaniya Jinoyat kodeksi norma raqobati yuzaga kelganda, maxsus norma umumiy normadan ustunligi, qo'shimcha norma faqat asosiy norma mavjud bo'lmaganda qo'llanishi, va og'irroq jazo belgilovchi norma engilroq sanksiyali normani qo'shib qo'llashga yo'l qo'yilmasligi kabi qoidalarni qonunda bevosita belgilagan. [1]

Xuddi shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi 17-moddasining 3-qismida: "bir jinoyat bir vaqtda umumiy va maxsus normada nazarda tutilgan bo'lsa, sodir etilgan qilmish faqat maxsus norma bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi, jinoyatlar majmui sifatida baholanmaydi" deb ko'rsatilgan.[2] Qozog'iston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi 12-modda 3-qismida umumiy va maxsus norma raqobatlashganda maxsus norma qo'llanishi, jinoyatlar majmui deb topilmasligi belgilangan. [3]

Bunday qoidalar jinoyat-huquqiy me'yorlar ziddiyatini hal qilishda huquqni qo'llovchi organlar uchun aniq yo'nalish beradi.

Ushbu turdagi umumiy va maxsus normalar raqobati jinoyat tarkibining asosiy va kvalifikatsiya qiluvchi ikki yoki undan ortiq tarkiblari o'rtasida vujudga kelishi mumkin.

Asosiy va kvalifikatsiyalovchi tarkiblar o'rtasida raqobat mavjud bo'lgan holatda, asosiy tarkib ijtimoiy xavfli qilmishning eng umumiy belgilarini o'z ichiga oladi va umumiy norma bilan belgilanadi. Kvalifikatsiyalovchi tarkib esa asosiy tarkibning muayyan bir belgisini detallashtiradi va maxsus norma bilan mustahkamlanadi. Kvalifikatsiyalovchi tarkib jinoyatning barcha elementlarini – obyektini, obyektiv va subyektiv tomonlarni, jinoyat subyektini — detallashtirishi mumkin.

Misol uchun, agar odam savdosida shaxs badaniga qasddan og'ir shikast yetkazilgan bo'lsa, qilmish JK 135-moddasi ikkinchi qismining "a" bandi bilan qamrab olinmaydi. Bunday hollarda

aybdorning harakatlari JK 104-moddasining tegishli qismi bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilinishi lozim.[4]

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009 yil 24 noyabrdagi 12-sonli "Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 14-bandida "Sudlarning e'tibori shunga qaratilsinki, odam savdosi jinoyati odamlarni kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud majburlashning boshqa shakllaridan foydalanish, o'g'irlash, aldash yo'li bilan sodir etilganda, shuningdek, qilmish JK 135-moddasi ikkinchi qismining "j", "z", "i", "k" bandlari, uchinchi qismining "b" bandi bilan kvalifikatsiya qilinganda, qilmishni Jinoyat kodeksining mazkur jinoyatlar uchun javobgarlik belgilovchi moddalar bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilishga, faqat qonunning boshqa normasida JK 135-moddasi tegishli qismi sanksiyasida belgilangan jazodan og'irroq jazo belgilangan hollardagina yo'l qo'yilishi" belgilangan. [5]

Obyekt bo'yicha mazkur turdagi raqobat shundan iboratki, raqobatlashayotgan normalarda jinoyatning bir xil ob'ekti nazarda tutiladi, biroq uning detallashtirilish darajasi turlichadir. Masalan, qasddan odam o'ldirishning asosiy tarkibini nazarda tutuvchi normalar (JKning 97-moddasi) hamda ayolni, aybdorga oldindan ma'lum bo'lgan holda homiladorlik holatida bo'lgan ayolni o'ldirish (JKning 97-moddasi 2-qismi "b" bandi), yoki mazkur shaxsning xizmat faoliyatini amalga oshirishi munosabati bilan uni yoxud uning yaqinlarini o'ldirish (JKning 97-moddasi 2-qismi "g" bandi), yoki ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirish (JKning 97-moddasi 2-qismi "a" bandi) haqidagi normalar umumiy va maxsus normalar raqobatida turadi. Bunda jablanuvchining demografik (homiladorligi, ikki kishining o'ldirilganligi) hamda o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi bilan bog'liqligi belgilarini aniqlashtirib, jinoyat obyektini aniqlashtiradi.

Obyektiv tomon belgilariga ko'ra raqobat qilmishni harakat yoki harakatsizlik shaklida ifodalovchi, shuningdek fakultativ belgilarni – jinoyat sodir etilgan joy, vaqt, usul, vaziyat, qurol va vositalarni ochib beruvchi normalar o'rtasida mavjud bo'ladi. Ko'p hollarda raqobat jinoyatni sodir etish usuli belgisi bo'yicha vujudga keladi.

Masalan, o'ta shafqatsizlik bilan sodir etilgan qasddan odam o'ldirish (JKning 97-moddasi 2-qismi "j" bandi) yoki boshqalar uchun xavfli usulda sodir etilgan odam o'ldirish (JKning 97-moddasi 2-qismi "d" bandi) to'g'risidagi normalar maxsus normalar bo'lib, qasddan odam o'ldirishning sodir etish usulini aniqlashtiradi (JK 97-moddasi 1-qismi).

Jinoyat sodir etilgan vaziyat obyektiv tomonning belgisi sifatida kvalifikatsiyalangan yoki engillashtiruvchi tarkiblarda maxsus norma bilan nazarda tutilishi mumkin.

Masalan, ona tomonidan yangi tug'ilgan bolani psixotravmatik vaziyat sharoitida o'ldirish (JKning 99-moddasi) yoki uzoq davom etgan psixotravmatik vaziyat ta'sirida to'satdan vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajon (affekt) holatida sodir etilgan odam o'ldirish (JKning 98-moddasi 1-qismi) haqidagi normalar maxsus normalar hisoblanadi. Bunda oddiy odam o'ldirish tarkibini nazarda tutuvchi norma (JKning 97-moddasi 1-qismi) umumiy norma bo'ladi.

Jinoyatni sodir etishda qo'llanilgan qurollar yoki vositalar obyektiv tomonning kvalifikatsiyalovchi belgisi sifatida ko'rsatilgan hollarda ham ular maxsus normada nazarda tutiladi.

Qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ashyolarni ishlatib qasddan badanga og'ir shikast etkazish (JKning 104-moddasi 2-qismi "l" bandi) to'g'risidagi normada mazkur qurol va predmetlar qilmish qaysi vositalar bilan sodir etilishini aniqlashtiradi.

Umumiy va maxsus normalar raqobatining o'ziga xos jihati shundaki, maxsus norma jinoyat qonunchiligidan chiqarib tashlangan taqdirda ham, ilgari aynan shu maxsus normada nazarda tutilgan qilmish uchun javobgarlik bekor qilinmaydi. Bunday javobgarlik umumiy norma doirasida saqlanib qoladi.

Obyektiv tomon belgisi sifatidagi jinoiy oqibat bo'yicha ham mazkur qoidaga muvofiq raqobat yuzaga kelishi mumkin.

Masalan, oddiy o'g'rilik haqidagi umumiy norma (JKning 169-moddasi 1-qismi) va fuqaroga ko'p miqdorda zarar etkazgan o'g'rilik haqidagi maxsus norma (169-moddasi 3-qismi "v" bandi); talonchilikning asosiy tarkibi haqidagi umumiy norma (JKning 166-moddasi 1-qismi) va juda ko'p miqdorda sodir etilgan talonchilik haqidagi maxsus norma (JKning 166-moddasi 3-qismi "a" bandi) va boshqalar.

Jinoyat tarkibining subyektiv tomoni belgilari bo'yicha ham ko'rib chiqilayotgan raqobat jinoyatni sodir etish motivi va maqsadi belgilarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Umumiy va maxsus normalar raqobati qasddan odam o'ldirishning oddiy tarkibi (JKning 97-moddasi 1-qismi) hamda milliy yoki irqiy adovat motivi bilan qasddan odam o'ldirish (97-modda 2-qismi "k" bandi) to'g'risidagi normalar o'rtasida normalar o'rtasida mavjud.

Amaldagi Jinoyat kodeksida aybning ikki shakliga ega bo'lgan murakkab aybli jinoyat, qasddan sodir etilgan jinoyat sifatida e'tirof etiladi, bu esa normalar raqobatini ayb belgisi bo'yicha ham ko'rib chiqish imkonini beradi. Amaldagi JKga muvofiq, aybdor shaxsning jinoiy oqibatga nisbatan ehtiyotsizlik munosabati bilan ifodalangan bo'lsa ham, qilmish qasddan sodir etilgan jinoyat turiga kiritiladi. Obyektiv voqelikda bu erda qasd va ehtiyotsizlikning o'ziga xos uyg'unligi mavjud bo'ladi, yuridik jihatdan esa qilmish qasddan sodir etilgan deb hisoblanadi.[6]

Subyekt belgisi bo'yicha ham umumiy va maxsus normalar o'zaro raqobatlasha oladi, ya'ni jinoyat umumiy subyekt va maxsus subyekt belgisiga ko'ra farqlanadi. Odatda jinoyat tarkiblarida maxsus subyektning quyidagi belgilari ko'rsatiladi: xizmat mavqeidan foydalangan shaxs (JK 133-modda 2-qismi "g" bandi, 135-modda 2-qismi "e" bandi, 1412-modda -qismi "g" bandi va boshqalar); xavfli residivist (105-modda 2-qismi "k" bandi, 118-modda 2-qismi "b" bandi, 121-modda 4-qismi "v" bandi va boshqalar); o'ta xavfli residivist (1261-modda 5-qismi "z" bandi, 164-modda 4-qismi "b" bandi, 270-modda 3-qismi "a" bandi va boshqalar).

Tamom bo'lmagan jinoyat (JKning 25-moddasi) va Maxsus qismdagi mustaqil jinoyat normalari orasida hamda ishtirokchilikka oid normalar (JKning 28 va 30-moddalari) va JK Maxsus qismidagi alohida jinoyat normalari orasida norma raqobati uchrashi mumkin. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rishdagi harakatlar ijtimoiy xavfli bo'lib, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar etkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish hisoblanadi va qat'iy choralarni qo'llashni talab qiladi. Shuningdek, qonun chiqaruvchi ayrim tayyorgarlik harakatlarini mustaqil tugallangan jinoyat sifatida baholab, JK Maxsus qismida javobgarlikni belgilashi mumkin. Bunday turdagi jinoyatlarning ob'ektiv tomoni tayyorgarlik harakatlaridan iborat bo'lib, quyidagilar misol bo'ladi:

Jinoiy uyushma tashkil etish (JKning 242-moddasi 1-qismi);

Uyushgan qurolli guruh tuzish (JKning 242-moddasi 2-qismi);

Ma'lum qilinishicha, ushbu jinoyat jinoiy uyushmani tuzgan vaqtdan tugallangan hisoblanadi.

JKning 242-moddasi 1 va qismlarida tavsiflangan tayyorgarlik harakatlari qoidalari esa JKning 25-modda 1-qismida nazarda tutilgan tayyorgarlik normasining maxsus holatlari bo'lib, ular umumiy normadan maxsus norma sifatida qo'llaniladi.

JKning 25-modda 2-qismiga binoan, qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga etkazilmagan bo'lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd deb topiladi. Qonun chiqaruvchi ayrim jinoyat sodir etishga suiqasd harakatlarini mustaqil tugallangan jinoyat sifatida baholab, JK Maxsus qismida javobgarlikni belgilagan. Bunday turdagi jinoyatlarga quyidagilarni misol qilish mumkin:

O'zini o'zi o'ldirish darajasiga etkazish (JKning 103-moddasi);

O'zini o'zi o'ldirishga undash (JKning 1031-moddasi);

Bosqinchilik (JKning 164-moddasi).

Maxsus qismda nazarda tutilgan holatlarda jinoyat sodir etishga suiqasdni tashkil qiluvchi amallar mustaqil tugallangan jinoyatlar hisoblanadi. Bu jinoiy normalar, ayrim jinoyat sodir etishga suiqasd normasini aniqlashtirib, umumiy norma hisoblangan JKning 25-moddasi 2-qismi normasiga nisbatan maxsus normalar hisoblanadi.

Masalan, bosqinchilik jinoyatida shaxsga qaratilgan hujum sodir etilgan vaqtdan boshlab, ozganing mulkini egallangan yoki egallanmaganidan qat'iy nazar jinoyat tarkibi tugallangan hisoblanadi. Bunday jinoyatlarda hujumning o'zi tugallangan bosqinchilik tarkibini tashkil qiladi.

Jinoyatda ishtirokchilik normalari raqobati jinoyatda umumiy shaklda 28 va 30-moddalarda ko'rsatilgan belgilar mavjud bo'lganda paydo bo'ladi.

JKning 28-moddasi 2-qismi va Maxsus qism moddalarida ko'rsatilgan bajaruvchi harakatlari orasidagi raqobat jinoyat qonuni bilan hal qilingan.[7]

Sud tergov amaliyotida bajaruvchining jinoiy harakatlari JKning 28-moddasiga murojaat qilmay, JKning Maxsus qism moddalari bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

JKning Maxsus qismida bajaruvchining aniq harakatlari maxsus norma sifatida belgilanadi, JKning 28-moddasi 2-qismi esa umumiy qoida sifatida ko'rsatiladi.

Jinoyat qonunida "jinoyatga undash" va "jalb qilish" tushunchalari ham mavjud bo'lib, ularning farqlanishini bilish lozim.

Malalan:

JKning 1031-moddasi – o'zini o'zi o'ldirishga undash uchun javobgarlik;

JKning 2161-moddasi – g'ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash uchun javobgarlik;

JKning 127-moddasi – voyaga etmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish uchun javobgarlik;

JKning 274-moddasi – giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish yoki bunday moddalarni iste'mol qilishga jalb etish uchun javobgarlik;

JKning 278-moddasi 3-qismi – voyaga etmagan shaxsni qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarga jalb qilish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlik belgilangan.

JKning 28-moddasi 4-qismiga binoan, jinoyat sodir etilishiga qiziqtiruvchi shaxs dalolatchi deb topiladi.

Ushbu tarifdan kelib chiqib, "jinoyatga undash" va "jalb qilish" tushunchalari jinoyat sodir etilishiga qiziqtirish bilan sinonim hisoblanib, jinoyat sodir etishga qiziqtirish usuli hosoblanadi.[8]

Yuqorida ko'rsatilgan jinoyat bo'yicha javobgarlik Maxsus qism moddasi bo'yicha belgilanadi, JKning 28-moddasi 4-qismga murojaat qilish talab qilinmaydi. Bu umumiy va maxsus norma raqobati qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Agar bajaruvchi jinoyat sodir etishga rozilik bersa-da, lekin rozilikni amalga oshirish uchun qo'shimcha harakat qilmasa, bu holat muvaffaqiyatsiz jinoyatga dalolat hisoblanadi, ya'ni dalolatchi bajaruvchini jinoyat sodir etishga jalb qila olmagan. Dalolatchi tomonidan bajaruvchini jinoyat sodir etishga jalb qila olmagan holatida javobgarlik faqat jinoyatga tayyorgarlik uchun kelib chiqadi.

Sodir bo'lgan podstrekatelstvo tahlilidan kelib chiqib, vovlechenie va sklonenie ijrochi yoki moyil qilingan shaxs kamida tayyorgarlik harakatini amalga oshirgan paytda tugallangan hisoblanadi.

Masalan, JKning 274-moddasi bo'yicha giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb qilish:

Huquqbuzar tomonidan shaxsda ularni iste'mol qilish maylini uyg'otishga qaratilgan har qanday qasddan qilingan harakatlarni sodir qilgan paytdan jinoyat tugallangan hisoblanadi. Jinoyatni tugallangan deb topish uchun jalb etilayotgan shaxs giyohvandlik vositasi, uning analogi psixotrop yoki aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddani haqiqatan ham iste'mol qilgan bo'lishi talab etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-apreldagi 12-sonli "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qaroriga binoan, "Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoki aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga jalb etish deganda, shaxsda ularni iste'mol qilish maylini uyg'otishga qaratilgan har qanday qasddan qilingan harakatlar (ko'ndirish, tavsiya qilish, maslahat berish va sh.o'.), shuningdek, ta'sir o'tkazilayotgan shaxs tomonidan bunday vosita yoki moddalar iste'mol qilinishi maqsadida aldash, tahdid qilish, jismoniy zo'rlik ishlatish, ozodligini cheklash va hokazolar tushuniladi. Jinoyatni tugallangan deb topish uchun jalb etilayotgan shaxs giyohvandlik vositasi, uning analogi psixotrop yoki aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddani haqiqatan ham iste'mol qilgan bo'lishi talab etilmaydi".[9]

Bizningcha ham voyaga etmaganni jinoyatga yoki giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoki aql-idrokiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishga jalb qilish

jinoyatlari shaxsda jinoyat, yoki iste'mol qilish istagini uyg'otuvchi harakatlar amalga oshirilgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Jalb etish harakatlari jinoyat sodir etishga aybdor niyati bilan muvofiq bo'lishi kerak.

Dalolatchining tushunchasi (JKning 28-moddasi 4-qismi) va Maxsus qismda belgilangan Voyaga etmagan shaxsni giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar iste'mol etishga jalb qilish (JKning 127-moddasi 2-qismi) normalari raqobatida afzallik Maxsus qism normalasiga beriladi.

Voyaga etmagan shaxsni giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar iste'mol etishga jalb qilishda jinoyat sub'ekti jinoyat sodir etgunga qadar o'n sakkiz yoshga to'lgan shaxs bo'lishi kerak.

Jinoyat tashkilotchisi to'g'risidagi umumiy norma (JKning 28-moddasi, 3-qismi) va Maxsus qismdagi jinoyatlar normalari orasida ham raqobat mavjud.

Jinoyat tashkilotchisi uchun javobgarlik belgilangan Maxsus normalarga jinoiy uyushma tashkil etish (JKning 242-moddasi, 1-qismi), uyushgan qurolli guruh tuzish, shuningdek unga rahbarlik qilish (JKning 242-moddasi, 2-qismi), ommaviy tartibsizliklar (JKning 244-moddasi, 4-qismi), diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish (JKning 244-moddasi) ni aytib o'tish mumkin.

JKning 33-moddasi 3-qismiga binoan, tashkilotchi – bu jinoyatga tayyorgarlik ko'rilishiga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs hisoblanadi.[10]

JKning Maxsus qismdagi normalarda tashkilotchining harakatlari aniqlashtiriladi. Masalan, u qanday jinoyatni rejalashtirgani (zo'ravonlik, talonchilik va mulkni vayron qilish bilan birga ommaviy tartibsizliklar aniqlashtiriladi. Shuning uchun, tashkilotchining harakatlari Maxsus qismda aniqroq bayon qilinganligi sababli, demak Maxsus qism normasi jinoyatni kvalifikatsiya qilishda qo'llanilishi kerak.

JKning 29-moddasida ishtirokchilikning shakllari deb nomlanib, oddiy ishtirokchilik, murakkab ishtirokchilik, uyushgan guruh, jinoiy uyushma shaklidaga turlari ko'rsatilgan.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirmay jinoyat sodir etishda qatnashishi oddiy ishtirokchilik deb topiladi.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirib jinoyat sodir etilishida ishtirok qilishi murakkab ishtirokchilik deb topiladi.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishi uyushgan guruh deb topiladi.

Ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun oldindan birlashishi jinoiy uyushma deb topiladi.

JKning 29-moddasi 1–4-qismlari va Maxsus qism moddalaridan ko'rinadiki, jinoyatning alohida tarkibi bo'yicha javobgarlik quyidagilar uchun belgilangan:

jinoiy uyushma tashkil etish (JKning 242-moddasi, 1-qismi);

uyushgan qurolli guruh tuzish, (JKning 242-moddasi, 2-qismi).

Jamoat birlashmalari 1991-yil 15-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi va 1999-yil 14-apreldagi "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq, fuqarolarning ijtimoiy yoki diniy, ixtiyoriy, mustaqil birlashuvi, umumiy maqsad va manfaatlari uchun tuziladi.

Jinoyat tashkilotlari esa ushbu qonuniy birlashuvlardan farq qilib, maqsadlari va usullari noqonuniy hisoblanadi.[11]

Guruh shaklida sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirib yoki uyushgan guruh bo'lib jinoyat sodir etilishi, sodir etilgan harakatlar Maxsus qismning tegishli moddalari bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi, ishtirokchilikning shakllariga, JKning 29-moddasiga murojaat qilish shart emas.

Masalan, o'g'irlik jinoyati bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib yoki uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilganda, JKning 169-moddasi 2-qismi, "v" bandi va 4-qismi "v" bandi maxsus norma hisoblanadi. JKning 29-moddasi umumiy norma hisoblanadi.

Ishtirokchilikni turlarga ajratish muhim yuridik ahamiyatga ega, bu ishtirokchilar harakatlari tasnifini to'g'ri aniqlashga imkon yaratadi. Xususan, oddiy ishtirokchilikda bajaruvchilar harakatlari faqat JK Maxsus qismi moddasi bo'yicha JK 28-moddasiga (ishtirokchilar turlari) havola qilmasdan kvalifikatsiya qilinadi, chunki ularning o'zlari muayyan jinoiy qilmishning obyektiv tomonini to'liq yoki qisman bajarishadi.

Murakkab JKning 29-moddasida ko'rsatilgan ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirib jinoyat sodir etilishida ishtirok qilishi murakkab ishtirokchilik, uyushgan guruh tomonidan jinoyat sodir etilishi, JK Maxsus qism jinoyat tarkiblarida og'irlashtiruvchi belgi sifatida ko'rsatilgan.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirib hamda uyushgan guruh tomonidan jinoyat sodir etilishi, javobgarligi faqat Maxsus qism moddasi bo'yicha belgilanadi – ya'ni buning uchun JKning 29-moddasiga murojaat qilish shart emas (umumiy norma).

JKning 29-moddasiga binoan uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tashkil etgan yoki ularga rahbarlik qilgan shaxslar shu guruh yoki uyushma sodir etgan barcha jinoyatlar uchun, basharti, bu jinoyatlar ularning jinoiy niyati bilan qamrab olingan bo'lsa, javobgarlikka tortiladilar.[12]

Uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tashkil etgan yoki ularga rahbarlik qilgan tashkilotchining javobgarligi yuzasidan raqobatda bo'lgan umumiy normalar (JKning 28-moddasi 3-qismi va 30-modda 3-qism) va Maxsus norma (Maxsus qism moddasi yoki bandi) o'zaro raqobatida Maxsus normalar qo'llaniladi.

JK Umumiy qismining jinoyatning tashkilotchisiga doir tushunchalar ko'rsatilgan, ya'ni JK 28-moddasi 3-qismiga ishora qilish lozim, zotan unda tashkilotchilik uchun dalolatchi va yordamchiga nisbatan og'irroq javobgarlik ko'zda tutiladi.

Ushbu holat yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qaroriga ko'ra, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan jinoyat to'g'risidagi ayblov hukmining tasvirlov qismida har bir ishtirokchi tomonidan qanday jinoiy harakatlar amalga oshirilganligi aniq ko'rsatib o'tilishi shart. [13]

Agar tashkilotchi jinoyatning tayyorlanishiga yoki sodir etilishiga rahbarlik qilgan bo'lsa-da, biroq jinoyat tarkibining obyektiv tomoni bajarilishida bevosita ishtirok etmasa, uning harakatlari JK 28-moddasi 3-qismi va JK Maxsus qismining jinoyat bajaruvchisi uchun javobgarlikni nazarda tutadigan tegishli modda bo'yicha tasniflanadi.

Masalan, uyushgan guruh tomonidan qasddan odam o'ldirish jinoyati sodir etilganda quyidagi normalar:

Qasddan odam o'ldirish, uyushgan guruh tomonidan sodir etilganda (JKning 97-moddasi 2-qismi "p" bandi);

Jinoyatni uyushtirgan rahbarning javobgarligi (JKning 28-moddasi 3-qismi);

Uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoyat (JKning 30-moddasi 3-qismi).

JKning 97-moddasi – qasddan odam o'ldirish jinoyatini batafsil tarzda aniqlaydi, shuning uchun maxsus norma hisoblanadi. Shu bois, Uyushgan guruh rahbari faqat maxsus normalar bo'yicha javobgarlikka tortilishi lozim.

Xulosa

Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirib hamda uyushgan guruh tomonidan jinoyat sodir etilishi, javobgarligi faqat Maxsus qism moddasi bo'yicha belgilanadi – ya'ni buning uchun JKning 29-moddasiga murojaat qilish shart emas (umumiy norma).

JKning 29-moddasiga binoan uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tashkil etgan yoki ularga rahbarlik qilgan shaxslar shu guruh yoki uyushma sodir etgan barcha jinoyatlar uchun, basharti, bu jinoyatlar ularning jinoiy niyati bilan qamrab olingan bo'lsa, javobgarlikka tortiladilar.

Uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tashkil etgan yoki ularga rahbarlik qilgan tashkilotchining javobgarligi yuzasidan raqobatda bo'lgan umumiy normalar (JKning 28-moddasi 3-qismi va 30-modda 3-qism) va Maxsus norma (Maxsus qism moddasi yoki bandi) o'zaro raqobatida Maxsus normalar qo'llaniladi.

Agar bir jinoyat uchun tartibga soluvchi ikki yoki undan ortiq huquq normasi mavjud bo'lsa, barcha sodir etilgan harakatni qamrab oluvchi norma qo'llaniladi. Boshqa norma esa faqat harakatning bir qismini qamrab oladi.

Jinoyat huquqi nazariyasida qilmishlarni kvalifikatsiya qilish bo'yicha qarama-qarshi takliflar mavjud ekanini va ular huquqni qo'llash amaliyotida ham yaqqol namoyon bo'layotganini hisobga olgan holda, zo'rlik ishlatish tushunchasini modda dispozitsiyasida aniqlashtirish maqsadga muvofiq.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Уголовный кодекс Испании от 01 марта 1992 г. - СПб.: Издательство "Юридический центр Пресс", 2018. 648 с./ Criminal Code of Spain of March 1, 1992. – St. Petersburg: Publishing House "Legal Center Press", 2018. 648 p.
2. Уголовный кодекс Российской Федерации от 13.06.1996 Н 63-ФЗ (ред. от 01.01.2026)/ Criminal Code of the Russian Federation of 13.06.1996 No. 63-FZ (01.01.2026)
3. Уголовный кодекс Республики Казахстан от 3 июля 2014 года № 226-В (с изменениями и дополнениями по состоянию на 01.01.2026). / Criminal Code of the Republic of Kazakhstan of July 3, 2014 No. 226-V (with amendments and additions as of January 1, 2026).
4. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 5. Maxsus qism. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 207 bet./ Rustambayev M.X. Course of Criminal Law of the Republic of Uzbekistan. Volume 5. Special Part. Textbook. 2nd edition, supplemented and revised. – T.: Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018. – 207 p.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009 yil 24 noyabrdagi 12-sonli "Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori./ Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 24 ноября 2009 года № 12 "О судебной практике по делам, связанным с торговлей людьми"/ Resolution of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan No. 12 of November 24, 2009 "On Judicial Practice in Cases Related to Trafficking in Persons".
6. Jinoyat huquqi. Darslik. Usmonaliyev M., Bakunov P. 2010. 87-bet./ Уголовное право. Учебник. Усмоналиев М., Бакунов П. 2010. С. 87./ Criminal Law. Textbook. Usmonaliyev M., Bakunov P. 2010. P. 87.
7. Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsidiov Z.Z. "Jinoyat huquqi" (Umumiy qism). O'quv qo'llanma – T.: TDYUU nashriyoti, 2021./ Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsidiov Z.Z. "Jinoyat huquqi" (Umumiy qism). O'quv qo'llanma – T.: TDYUU nashriyoti, 2021./ Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsidiov Z.Z. "Criminal Law" (General Part). Study Guide – T.: TSLU Publishing House, 2021.
8. Jinoyat huquqi (umumiy qism). Yuridik texnikum o'quvchilari uchun darslik. – T.: TDYU nashriyoti, 2021. – 104 b./ Уголовное право (Общая часть). Учебник для учащихся юридического техникума. – T.: Издательство ТГЮУ, 2021. – 104 с./ Criminal Law (General Part). Textbook for students of law technical college. – T.: TSLU Publishing House, 2021. – 104 p.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017-yil 28-apreldagi 12-sonli "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori./ Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 28 апреля 2017 года № 12 "О судебной практике по уголовным делам, связанным с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ"/ Resolution of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan No. 12 of April 28, 2017 "On Judicial Practice in Criminal Cases Related to the Illicit Trafficking of Narcotic Drugs and Psychotropic Substances"
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014 yil 23 maydagi 07-sonli "Sud hukmi to'g'risida"gi qarorining 20-bandini./ Пункт 20 Постановления Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 23 мая 2014 года № 07 "О приговоре суда"/ Paragraph 20 of the Resolution of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan No. 07 of May 23, 2014 "On the Court Verdict".
11. Уголовный Кодекс Республики Казахстан от 03 июля 2014 г. (действующая редакция) // Ведомости Парламента Республики Казахстан. - 2020. - № 15./ Qozog'iston Respublikasi Jinoyat

kodeksi 2014 yil 3 iyuldagi (amaldagi tahriri) // Qozog‘iston Respublikasi Parlamenti axborotnomasi. - 2020. - № 15./ Criminal Code of the Republic of Kazakhstan of July 3, 2014 (current edition) // Bulletin of the Parliament of the Republic of Kazakhstan. - 2020. - № 15.

12. Рустамбаев М.Х. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. Особенная часть / [Под общей ред. А.А. Палван-Заде] – Т.: ИПТД “Адолат”, 2016. / Rustambayev M.X. Commentary on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. Special Part / [Under the general editorship of A.A. Palvan-Zade] – T.: “Adolat” Publishing House, 2016.

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.